

UDK: 619.576.895.75.614.449.52

QORAMOLLAR ORASIDA EKTOPARAZITLARNING TARQALISHI**Gaypnazarov S.B.,***SAMDVMCHBU Nukus filiali magistranti***Pulotov F.S.,***SAMDVMCHBU Nukus filiali dotsenti (ilmiy rahbar)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqolpogʻston Respublikasi nukus tumani hududidagi qoramollarda ektoparazitlarning tarqalishi, ularning biologik xususiyatlari va hayvonlarning sogʻligʻiga taʼsiri oʻrganildi. 2024–2025-yillarda jami 130 bosh qoramoldan parazitologik namunalar olinib, *Bovicola bovis* va *Linognathus vituli*, *Rhipicephalus ricinus* kabi asosiy ektoparazit turlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari ektoparazitlarning qoramollar orasida keng tarqalganligini, ularning organizmga allergik va toksik taʼsir koʻrsatishini hamda mahsuldorlik va sogʻliq holatining pasayishiga olib kelishini koʻrsatdi. Ayniqsa, *Bovicola bovis* junxoʻri mavsumiy tarqalish dinamikasi batafsil tahlil qilindi. Mazkur parazitlarga qarshi samarali profilaktika va davolash choralari ishlab chiqish zarurati taʼkidlandi. Maqola qoramolchilikda ektoparazitlar bilan kurashish boʻyicha amaliy va ilmiy jihatdan dolzarb masalalarni yoritadi.

Kalit soʻzlar: *Bovicola*, bit, burga, kana, ektoparazit, entomolog.

Mavzuning dolzarbligi: Qoramolchilik sohasining jadal rivojlanishi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, aholi bandligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tarmoqda yuqori mahsuldorlikka erishish bevosita hayvonlarning salomatligiga, ularni parvarishlash sharoitlari va yuqumli hamda invazion kasalliklarning oldini olish darajasiga bogʻliqdir. Soʻnggi yillarda qoramollar orasida uchrayotgan tashqi parazitlar, yaʼni **ektoparazitlarning** (bit, burga, *bovicola*, kana va boshqalar) tarqalish surʼatining ortib borayotgani ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Ektoparazitlar nafaqat hayvon organizmida allergik va toksik reaksiyalarni keltirib chiqaradi, balki ular orqali turli xil gemoparazitar va bakterial kasalliklar (piroplazmoz, anaplazmoz, dermatitlar va b.) tarqalish xavfi ortadi. Bu esa qoramollarning umumiy fiziologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning o'sish sur'ati, mahsuldorligi va nasl berish qobiliyatini keskin pasaytiradi, natijada chorvachilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

Mazkur sharoitda qoramollar orasida ektoparazitlarning tur tarkibi, tarqalish qonuniyatlari, ularning hayvon organizmiga ta'siri va samarali profilaktika usullarini chuqur o'rganish — zamonaviy veterinariya parazitologiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ekologik toza, iqtisodiy samarali va biologik xavfsiz kurash choralari ishlab chiqish, aholi va fermer xo'jaliklari o'rtasida parazitologik madaniyatni oshirish orqali ushbu muammoning yechimiga erishish mumkin. Shu bois, qoramollar orasida ektoparazitlarning tarqalishi, ularning biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularga qarshi kurashish usullarini takomillashtirish bugungi kunda nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala sifatida e'tiborni tortmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Shaxsiy va fermer xo'jaliklardagi qoramollarda parazitlik qiluvchi ektoparazit va ektoparazitozlarning faunasi va mavsumiy tarqalishi dinamikasini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotlarda parazitologik, entomologik, epizootologik, mikroskopik tekshirish, ekologo-faunistik va veterinariya parazitologiyasi fanlarining zamonaviy tavsiya va uslubiy qo'llanmalaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: 2024–2025-yillarda Nukus tumani hududidagi chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarda ektoparazitlarning tarqalishi bo'yicha kompleks parazitologik tadqiqotlar o'tkazildi. Umumiy hisobda 130 bosh qoramoldan parazitologik namuna olindi va ularning tashqi parazitlari morfologik usullar orqali aniqlab olindi.

Ektoparazitlarning yuqori tarqalishi sog'liqni saqlash va mahsuldorlikka salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, teri sifatining pasayishiga va natijada chorvachilik xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligining kamayishiga olib kelmoqda. Shu bois, ular bilan kurashish uchun samarali profilaktik va davolash choralari ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati mavjud.

(1-jadval, 1-rasmar).

Qoramollarda aniqlangan ektoparazitlar va ularning turlari

Jadval 1

T/r	Hayvon turlari	Topilgan ektoparazit turlari
1.	Qoramol	Bovicola bovis
2.		Linognathus vituli
3.		Rhipicephalus ricinus
4.		



Rasm 1. Qoramollardan topilgan ektoparazitlar.

Qoramollarni uzoq muddat transportirovka qilish, ya'ni bir davlatdan ikkinchi bir davlatga olib kelish (migratsiya) davomida, junlar, teri xom ashyosi va suv (cho'miltirilganda va suv ichish jarayonida) orqali tarqalishi va yilning barcha mavsumlari davomida uchrab turishlari kuzatildi. Binodaga yuqori namlik va qulay harorat qish oylaridagi quyosh nurining yetishmovchiligi, qoramol junlarini uzun bo'lishi, ularni sifatsiz oziqlantirish va zich saqlanishlari Bovicola bovisning rivojlanishi va tez tarqalishi uchun qulay sharoit tug'dirishi aniqlandi.

Shunday qilib, Bovicola bovis qoraqmol organizmida barcha mavsumlarda uchrashi, biroq invaziya ekstensivligi va intensivligi mavsumga nisbatan o'zgarib turishi, ya'ni dekabr-yanvar-fevral-mart-aprel-may oylarida zararlanish maksimal darajada, may-iyun-iyul-avgust-sentyabr oylarida minimal, oktyabr-noyabr oylarida o'rtacha holatda bo'lishi kuzatildi.

Qoramollar junxo'rlarining oylar boyisha tarqalish dinamikasi

Jadval 2

Qoramollar yoshi	B.bovis fazalari	Mavsumlar boyicha ekstensiv zararlanish (EZ), foiz			
		Qish	Bahor	Yoz	Kuz
6 oylikgacha	Tuxum	72,0	98,0	22,0	36,0
	Lishinka	70,0	94,0	18,0	32,0
	Imago: Erkagi	65,0	96,0	20,0	34,0
	Urg'oshisi	68,0	97,0	22,0	35,0
	Jami:	68,7	96,2	20,5	34,3
Katta yoshdagi	Tuxum	70,0	96,0	18,0	30,0
	Lishinka	68,0	93,0	16,0	28,0
	Imago: Erkagi	66,0	98,0	15,0	26,0

	Urg'oshisi	66,0	94,0	16,0	27,0
	Jami:	67,5	95,2	16,3	27,8
	Ortachasi:	68,1	95,7	18,4	31,0




Diagramma 1.

Qoramollarda Bovicola bovisning mavsumiy dinamikasi

T/r	Topilgan ektoparazitlar nomi	Mavsumlar bo'yicha ekstens zararlanish, %			
		Qish	Bahor	Yoz	Kuz
1.	Katta yoshli	67,5	95,2	16,3	27,8
2.	6 oylikgacha	68,7	96,2	20,5	34,3

Xulosa. O'tkazilgan parazitologik tadqiqotlar natijasida Qoraqolpog'iston Respublikasining Nukus tumani hududidagi chorvachilik xo'jaliklarida qoramollar orasida ektoparazitlarning tarqalishini tekshirish natijalariga ko'ra qoramollar orasida junxo'rlar (*Bovicola bovis*) keng tarqalganligi aniqlandi. Ushbu ekto-parazitlar hayvonlar salomatligiga sezilarli darajada zarar yetkazib, mahsuldorlikning keskin

pasayishiga sabab bo'lmogda. Ayniqsa, yosh mollar invaziyaga ko'proq chalinishi, epizootik tarqalish xavfini kuchaytiradi. Shu boisdan, chorvachilik xo'jaliklarida junxo'rlarga qarshi profilaktik va davolovchi choralarni tizimli ravishda amalga oshirish, sanitariya holatini yaxshilash, muntazam monitoring olib borish zarur. Bu orqali qoramol mahsuldorligini oshirish va hayvonlarning umumiy salomatligini saqlab qolish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Агринский, Н.И. Насекомые и клещи, вредящие сельскохозяйственным животным / Н.И. Агринский. — М.: Сельхоз лит., журналов и плакатов, 1962. — 285 с.
2. Акбаев, М.Ш. Паразитология и инвазионные болезни животных / М.Ш. Акбаев, Ф.И. Василевич, Р.М. Акбаев и др. — М.: Колосс, 2008. — 750 с.
3. Артамонов, С.Д. Насекомые и клещи Дальнего Востока, имеющие медико-ветеринарное значение / С.Д. Артамонов, Ю.Д. Бодрова, В.М. Глухова. — Л.: Наука, 1987. — 225с.
4. Благовещенский, Д.И. Пухоеды (Mallophaga) фауны СССР / Д.И. Благовещенский: автореф. дис... докт. биол. наук. — Л.: Зоологический институт АН СССР. 1953. — 21 с.
5. Djalolov, A. A., F. S. Pulotov va A. Sh Ismoilov. "Bovicola ovisga qarshi bioinsektitsidning insektitsid xususiyati." *Tarix va ijtimoiy fanlarni o'rganish bo'yicha Evropa jurnali* 1.7 (2024): 159-163.
6. Pulotov, F. S., et al. "BOVIKOLYOZ BILAN KASALLANGAN ECHKILAR QONIDAGI GEMATOLOGIK O'ZGARISHLAR." (2025): 5-8.
7. Gaypnazarov, S. B., and F. S. Pulotov. "QORAQAOLPOG'STON HUDUDIDAGI QORAMOLLARDA JUNXO'RLARNING TARQALISHI." (2025): 179-182.

8. Gaypnazarov, S. va F.S. Pulotov. "QARAMAL JUNXORLARI FENOLOGIYASI (A'debiyat mag 'lwmatlari tahlili)." *Yangi O 'zbekiston ustozlari* 2.29 (2024): 78-81.
9. Gaypnazarov, S.B., Pulotov F.S. "QORAMOLLAR BOVIKOLYOZI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15359886>." *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya* . jild. 1. No 2. 2025 yil.
10. Elmurodov, BA va boshqalar. "ALFA-SHAKTI PAYLASHTIRISHNING CHINLAR VA PATORLARGA QARSHI INSEKTSID TA'SIRI". *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.3 (2024): 250-256.